




**2021- yil yanvar-sentabr  
oylarida  
Samarqand viloyatida  
xizmatlar sohasining  
rivojlanishi**

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi – milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilmalilligini, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqt ni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.



**2021- yil yanvar-sentabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **13 116,2 mlrd. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **3 110,2 mlrd. so'mga** oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **120,3 %** ni tashkil etdi.

### **Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)**

**13 116,2  
mlrd. so'm**

**120,3 %**

**3 110,2  
mlrd. so'mga**

• Xizmatlar hajmi

• O'sish sur'ati

• Hajmning o'sishi

**2021- yil yanvar-sentabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**


| Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab<br>chiqarilgan xizmatlarning asosiy<br>ko'rsatkichlari<br>(2021- yil yanvar-sentabr oylarida) | Hajmi,<br>mlrd. so'm | 2020- yilga<br>nisbatan<br>o'sish sur'ati,<br>% da |
|--|----------------------|--|
| <b>Xizmatlar - jami</b>  | <b>13 116,2</b>      | <b>120,3</b>                                       |
| shu jumladan:  |                      |  |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari  | 608,9                | 116,2  |
| Moliyaviy xizmatlar  | 1 967,6              | 125,5  |
| Transport xizmatlari   | 3 206,6              | 118,3  |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari   | 3 017,7              | 115,1  |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari  | 391,7                | 120,5  |
| Savdo xizmatlari   | 3 670,8              | 108,5  |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar  | 323,4                | 130,0  |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar  | 621,5                | 155,1  |
| Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar   | 261,5                | 139,2  |
| Ijara xizmatlari   | 416,2                | 126,7  |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash<br>bo'yicha xizmatlar   | 364,3                | 127,2  |
| Shaxsiy xizmatlar  | 557,6                | 119,3  |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari,<br>texnik sinovlar va tahlil sohasidagi<br>xizmatlar   | 423,4                | 175,5  |
| Boshqa xizmatlar   | 302,7                | 120,2  |

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi , % da

#### Nisbatan past ko'rsatkich



#### Nisbatan yuqori ko'rsatkich

#### Savdo xizmatlari




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi **28,0 %** ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori sur'atlar transport (**24,4 %**), moliyaviy xizmatlar (**15,0 %**), shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlarda (**4,7 %**) qayd etildi.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da**



—●— 2020- y. yanvar-sentabr


◆ 2021- y. yanvar-sentabr

**2021- yil yanvar-sentabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida jami ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida transport xizmatlarining ulushi ustun bo'lib qolmoqda – **24,4 %**.

**Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi  
(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)**



**Xizmatlar**

**Avtomobil  
transporti**

**Boshqa  
transport faoliyati**

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida transport xizmatlari umumiyligi hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **94,1 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-sentabr oylarida ushbu transport turi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning ulushi **96,4 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi.

Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'r-satilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

### Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da

2020- y. yanvar-sentabr

28,4

2021- y. yanvar-sentabr

28,8

71,6

71,2

Yo'lovchi tashish

Yuk tashish

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **71,2 %** ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-sentabr oylarida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **71,6 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **28,0 %** ni tashkil etib, bu esa **3 670,8 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning hajmi **3 020,0 mlrd. so'mga** yoki umumiylajmi hajmning **30,2 %** iga to'g'ri kelgan.

### Savdo xizmatlari

**3 020,0**

Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm

**3 670,8**

**102,0**

O'sish sur'ati, % da

**108,5**

2020- y. yanvar-sentabr

2021- y. yanvar-sentabr

**2021- yil yanvar-sentabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismini, aniqrog'i **76,3 %** ini tashkil etdi.

**Savdo xizmatlari tarkibi  
(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)**



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **75,5 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

### **Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)**

2021- yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 967,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-sentabr oylarida ularning hajmi **1 544,2** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiyligi xizmatlar hajmidagi ulushi **15,0 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi **15,4 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **423,4** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **25,5 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning o'sish sur'ati **134,9 %** ni tashkil etgan.

**2021- yil yanvar-sentabr**


**Dastlabki ma'lumotlar**

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **92,4 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **4,0 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **3,6 %** ini tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi  
(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)**



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmning **91,4 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **4,0 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **4,6 %**.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2021- yilning yanvar-sentabr oylarida)

O'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **608,9** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2020- yilga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati **116,2 %** ni tashkil etgan.


#### Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ushbu xizmat turi hajmi **518,1** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiyligi hajmining **5,2 %** iga teng bo'lgan.

O'sish sur'ati esa **108,3 %** ni tashkil etgan.

#### Hajmning o'sishi



Xizmatlar hajmi

#### Jami hajmdagi ulushi


2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamонавиј ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

### Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **621,5 mlrd. so'mga** yetdi yoki bozor xizmatlari umumi hajmining **4,7 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning yanvar-sentabrga nisbatan o'sish sur'ati **155,1 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

288,4  
mlrd. so'm

2020- y.  
yanvar-sentabr

391,7  
mlrd. so'm

2021- y.  
yanvar-sentabr

Xizmatlar hajmi

84,5 %

120,5 %



O'sish sur'ati

2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **103,3** mlrd. so'mga ortgan.

**2021- yil yanvar-sentabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi**



**2021- y. yanvar-sentabr**

**2020- y. yanvar-sentabr**



**Yashash bo'yicha  
xizmatlar**



**Oziq-ovqat va ichimliklar  
bilan ta'minlash  
bo'yicha xizmatlar**

2021- yil yanvar-sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **93,0 %** bilan ustunlik qildi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-sentabr oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **90,6 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

### Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.  
Yanvar-sentabr



2020- y.  
Yanvar-sentabr

Xizmatlar  
hajmi

Xizmatlarning  
jami hajmidagi  
ulushi

O'sish  
sur'ati

174,1  
mlrd. so'm


1,7 %

94,5 %

261,5  
mlrd. so'm

2,0 %

139,2 %



2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

| Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan<br>xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari<br>(2021- yil yanvar-sentabr oylarida) | Hajmi,<br>mlrd. so'm | O'sish sur'ati, % da |              |
|---|----------------------|----------------------|--------------|
|   |                      | 2021- y.             | 2020- y.     |
| <b>Samarqand viloyati</b>   | <b>13 116,2</b>      | <b>120,3</b>         | <b>102,3</b> |
| <i>shaharlar:</i>   |                      |                      |              |
| Samarqand sh.   | 5 531,1              | 126,1                | 105,3        |
| Kattaqo'rg'on sh.   | 305,7                | 116,2                | 100,3        |
| <i>tumanlar:</i>  |                      |                      |              |
| Oqdaryo   | 454,6                | 116,8                | 100,3        |
| Bulung'ur   | 358,4                | 118,7                | 100,4        |
| Jomboy  | 592,3                | 115,9                | 100,3        |
| Ishtixon  | 485,0                | 114,2                | 101,2        |
| Kattaqo'rg'on   | 538,8                | 114,6                | 100,4        |
| Qo'shrabot  | 262,9                | 114,8                | 100,0        |
| Narpay  | 449,1                | 115,4                | 100,4        |
| Payariq   | 478,6                | 116,9                | 100,8        |
| Pastdarg'om   | 819,9                | 115,0                | 100,2        |
| Paxtachi  | 288,8                | 114,1                | 100,1        |
| Samarqand   | 833,9                | 115,7                | 101,0        |
| Nurobod   | 257,3                | 113,7                | 100,0        |
| Urgut   | 845,5                | 116,9                | 100,9        |
| Toyloq  | 614,3                | 124,8                | 101,1        |

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

### Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

#### Xizmatlar hajmi

3 296,9  
ming so'm



#### Hajmnning o'sishi

733,2  
ming so'mga

118,0 %

#### O'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 296,9** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **118,0** % ni tashkil etdi.

#### Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **2 563,7** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **100,3** % da qayd etilgan.